

Insonga naf keltirish - oliy baxt!

2019 yil 25 yanvarda institut Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor Q.Shavazov, Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi F.Irisov, institut psixologi Yu.Narmetova hamkorligida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rovojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturidagi vazifalarni bajarish yuzasidan "Yoshlar- kelajak bunyodkori" shiori ostida davra suhbatini o'tkazildi. Unda Respublika ijtimoiy bolalar moslashuv markazidan qator psixologlar va ijtimoiy bo'lim xodimlari ishtirok etishdi va tajribali psixologlar tomonidan psixologik treninglar o'tkazildi. Davra suhbatida ijtimoiy himoyaga muxtoj, chin yetim va kam ta'minlangan fakultet talabalari ishtirok etdi. Suhbat jarayonida institutning "Ijtimoiy rivojlanish" dasturini tuzishda talbalardan fikr va mulohazalar tinglandi. Faol talabalarimizga va mehmonlarimizga Kasaba uyushmasining estalik sovg'alari topshirildi.

